INTENSIV USULDA TOVAR BALIQLARNI YETISHTIRISH AFZALLIKLARI

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna.
Navoiy davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlarni õqitish
metodikasi (biologiya) 2-bosqich magistranti.
Baxodir Jumaboyev
Ilmiy rahbar: Navoiy davlat pedagogika instituti biologiya
kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Berilgan tezisda intensiv usulda tovar baliqlarni yetishtirish afzalliklari to‘g‘risida bayon qilingan. Xitoy tajribasi asosida kichik suv hovuzlarida intensiv usulda baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yishni kengroq targ‘ib qilish. Ushbu usul orqali suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan xonadonlarda tovar baliqlarini yetishtirish ishlari tashkil etish

Kalit so‘zlar: intensiv usul, afrika laqqasi, Xitoy tajribasi, akvariumli xona, osyotr baliq.

Аннотация: В данной диссертации описаны преимущества интенсивного товарного рыбоводства. Более широкое продвижение интенсивного рыбоводства в малых прудах на основе китайского опыта. С помощью этого метода организуют товарное рыбоводство в хозяйствах с хорошим водоснабжением.

Ключевые слова: интенсивный метод, африканские рыбы, китайский опыт, помещение с аквариумом, страусовые рыбы.

Annotation: The given thesis describes the advantages of intensive commercial fish farming. Wider promotion of intensive fish farming in small ponds based on Chinese experience. Using this method, organizing commercial fish farming in households with good water supply.

Keywords: intensive method, African fish, Chinese experience, room with an aquarium, ostrich fish.

O‘zbekistonning baliqchilik tarmog‘ida so‘nggi besh yilda umumiy qiymati 2,2 trln so‘mlik 1016 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, bu joriy yilda baliq yetishtirish hajmini 6 barobarga oshirish va 400 ming tonnaga yetkazish imkonini berdi. Baliq iste’moli 2016-yilga nisbatan 5,7 barobar oshdi. Shuningdek, yaqin yillarda baliq yetishtirishni 600 ming tonnaga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Mamlakatimizga baliqning 4 ta yangi turlari – osyotr, afrika laqqasi, lasos va tilyapiya keltirildi. Ular bugungi kunda O‘zbekiston iqlimiga moslashtirilgan bo‘lib, juda yaxshi natijalar bermoqda.

Bu chora-tadbirlar O‘zR Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 20-dekabr kuni o‘tkazgan yig‘ilishi asosida amalga oshirilmoqda. Yig‘ilishda bu boradagi ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va kooperativ baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari muhokama qilingan edi.

Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutida yopiq suv ta’minotiga ega 7 ta havza mavjud. Bu yerda suv aylanadi, filtrdan o‘tib, kislorodga boyitiladi va yana qayta havzalarga tushadi. Hovuzlarda asosan issiqsevar baliq turlari saqlanadi: Afrika laqqasi va tilyapiya. Yopiq suv ta’minoti tizimlaridan tashqari, Baliqchilik ITIda 4 turdagi – kometa, oranda, koya karplari va ryukin akvarium baliqlari joylashtirilgan 36 ta akvariumli xona mavjud.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2022-yilni Xalqaro kichik hajmli baliqchilik va akvakultura yili deb e’lon qildi. Ushbu tashabbus baliqchilar va kichik hajmli baliqchilik ishchilarining oziq-ovqat xavfsizligi, qashshoqlikka barham berish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga qo‘shgan hissasiga jahon hamjamiyati e’tiborini qaratish, ularning muhim roli to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va soha vakillarining qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish maqsadida ilgari surilgan./3/

Bugungi kunda Xitoyda baliqchilik sohasida oilaviy pudrat turi keng tarqalgan, bu baliqchilik sohasini bizga yaxshi tanish bo‘lmagan qirralarini ochib beradi. Xitoyda aholi tomonidan havzalar barpo etib, ularda baliq yetishtirishning uchta usuli keng tarqalgan.

Xitoy tajribasi asosida kichik suv hovuzlarida intensiv usulda baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yishni kengroq targ‘ib qilish – bu usulda bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo, Xorazm, Navoiy va Samarqand viloyatlarida keng foydalanilmoqda. Ushbu usul orqali suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan xonadonlarda Afrika laqqa baliqlarini yetishtirish ishlari tashkil etilmoqda.

Xitoy texnologiyasi asosida yopiq suv aylanma tizimi (UZV)da baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish - Mazkur usulning afzalliklari texnologik jarayonlarda havza aeratsiyasini tashkil etish orqali, o‘simlikxo‘r baliqlarni yuqori tig:izlikda o‘tqazish va mahsulotni doimiy ovlash orqali havza hosildorligini ko‘tarish. Bunda Xitoy texnologiyasi asosida kichik tuproq havzalarga qo‘shimcha aeratorlar o‘rnatiladi va ushbu usul orqali kichik sun’iy havzalar hosildorligi gektariga 6-9 tonnaga ortishi erishiladi./2/

Adabiyotlar:

1. Husanov S.Q. va boshqalar. Baliqchilik asoslari. B.: "Buxoro" nashriyoti.2010.- B.294

2. E.Kenjayev, K.I.Sirojiddinov. “Baliqchilik iqtisodiyoti” fanidan o‘quv – uslubiy majmua. Namangan- 2021, 291 - bet

3. Internet ma’lumotlar:

www Agro.uz.